YANGI O‘ZBEKISTONNI, ALBATTA, YOSHLAR BILAN BIRGA QURAMIZ

@intellektpress @intellektpress @intellektpress

# INTELLEKT

IJTIMOIY-TA’LIMIY, MADANIY-MA’RIFIY GAZETA

2022-YIL – INSON QADRINI ULUG‘LASH VA FAOL MAHALLA YILI

2020-YIL 2-SENTABRDAN CHIQA BOSHLAGAN | 2022-YIL, 16-IYUL № 13 (45) | E-MAIL: INTELLEKTPRESS@UMAIL.UZ

## KONSTITUTSIYA – KOMILLIGIMIZ KAFOLATI



Bizning ko‘z o‘ngimizda insoniyat tafakkuri oldida minglab sayyoraviy muammolar bir-biri bilan qo‘shilib ulkan global ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Bu balo-ofatlarga qarshi turish uchun har bir mustaqil davlat eng so‘nggi bilim bilan, eng zamonaviy texnologiya bilan, raqobatbardosh salohiyat bilan qurollanishi shartdir.

Bejizga Ustoz, Konstitutsiyaviy komissiya a’zosi, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektori, professor, senator Rustam Ibragimovich Xalmurodov joriy yilning 23-iyun kuni matbuotdagi chiqishida shunday demagan edi: “Inson hayoti va uning qadri borasida juda ortda qolib ketganligimizni 2016-yilga kelib, yanada chuqurroq his qilganman. Davlat qudrati uning tabiiy boyliklari bilan harbiy kuchi, iqtisodiy imkoniyatlari bilan o‘lchanadigan zamonlar allaqachon o‘tib ketgan. Bugun xalqning eng avvalo, turmush darajasi, huquqlari, intellekti, dunyoqarashi, tafakkur olamiga qarab baho berish urfga aylandi. Inson tafakkuri, insonning hayotdan rozilik darajasi, uning haq-huquqlarining so‘zsiz ta’minlanishi bu har qanday davlat qudratidan muhimroqdir”.

Darhaqiqat, yangilanish va mazmunli islohotlar, xalqchil huquq mezonlari davr talabidir. Ma’lumki, zalvorli kechayotgan shu yilning 25-iyunidan mamlakatimizda “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasining umumxalq muhokamasi bormoqda. Ushbu qizg‘in jarayonda ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlarda, joylarda o‘tkazilayotgan uchrashuvlarda mazkur qonun loyihasi yuzasidan aholi o‘z munosabatini bildirmoqda.

Deputat va senatorlar, siyosatshunoslar va olimlar tomonidan keng aholi qatlami ishtirokida tadbirlar tashkil etilib, Konstitutsiyaga kiritilayotgan o‘zgarishlar mohiyati tushuntirilmoqda. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida belgilangan keng ko‘lamli vazifalar, xalqparvar davlatni barpo etish, inson huquq va manfaatlari, qadr-qimmatini yanada samarali ta’minlash kabi maqsadlar mamlakatimizdagi tub islohotlarga mos yangi konstitutsiyaviy-huquqiy makonni yaratish zaruratini yuzaga keltirgani alohida aytilmoqda. Xalqimiz tomonidan berilgan takliflar, shuningdek, davlatimiz rahbarining Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvda “insonning qadr-qimmati, sha’ni va g‘ururi bundan buyon barcha sohalarda birinchi o‘rinda turishi kerak” degan tamoyil asosida berilgan takliflardan kelib chiqib “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi tayyorlandi va unda Konstitutsiyamizning 60 dan ortiq moddasiga 200 dan ko‘proq tuzatishlar nazarda tutilgan. Bu o‘zgartirishlar “inson-jamiyat-davlat” prinsipiga asoslangan bo‘lib, milliy konstitutsiyaviy o‘zlikni aks ettiradi va amaldagi Konstitutsiyamizning barcha bo‘limlariga tub o‘zgartirishlar kiritishni nazarda tutadi.

Konstitutsiyaviy tuzatishlar, avvalambor, jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlariga mansub bo‘lgan fuqarolarning shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ekologik huquqlari hamda manfaatlarini ta’minlashga, himoya qilishga qaratilgan to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlaydigan normalarga aylanadi. Ko‘pchilik tomonidan alohida ta’kidlanayotganidek, Konstitutsiya – istiqlol va mustaqil O‘zbekiston ramzi, g‘urur-iftixori, shu zaminda istiqomat qilayotgan millati, dini, irqi, tilidan qat’i nazar, barcha uchun mustahkam himoya, fuqarolik jamiyatimiz istiqbolini aniqlab beruvchi dasturilamal hujjatdir. Bugungi islohotlar davrida uni yanada takomillashtirishga, o‘zgartirishga katta ehtiyoj sezilmoqda. Loyihaning umumxalq muhokamasi 5-iyulga qadar davom etdi.

Matbuotda Konstitutsiyaga “Shaxsning sudlanganligi va undan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklashga asos bo‘lishi mumkin emas”, deb qat’iy yozib qo‘yish kerakligi haqidagi taklif bilan tanishdim. Bu qarindosh-urug‘chilik, quda-andachilikni nihoyatda qadrlaydigan xalqimiz uchun qanchalik quvonchli xabar ekanligini tasavvur qilish qiyin. Bu mamlakatimizni tom ma’noda huquqiy davlat deb e’tirof etishga asos bo‘ladigan ajoyib va dangal taklifdir.

Taklif Konstitutsiyada aks etsa, bilimi, iqtidori va quvvai hofizasi baland xalqimizning yigit va qizlarini o‘zini har tomonlama namoyon qilish, mamlakat va oilasi farovonligi yo‘lida halol va sadoqat bilan mehnat qilish imkoniyatini taqdim etishiga ishonchim komildir. Konstitutsiyaviy islohotlar milliy o‘zligimizni yanada teran anglashimizga xizmat qilishi bilan bizda ham katta qiziqish uyg‘otdi. Shuningdek, Bosh qomusimizga “Inson qadri uchun” g‘oyasi asosida milliy o‘zligimiz, bebaho qadriyatlarimiz chuqur singdirilib, inson manfaatlari ulug‘lanmoqda. Zotan, milliy o‘zlikka asoslangan Konstitutsiyagina adolat qo‘rg‘oniga aylanadi.

Qonun loyihasida 1-modda. “O‘zbekiston – suveren respublika, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy, demokratik davlat. Davlatning «O‘zbekiston Respublikasi» va «O‘zbekiston» degan nomlari bir ma’noni anglatadi», deya o‘zgartirilishi taklifi berildi. Ya’ni, “...huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy” so‘zlari qo‘shildi.

Huquq va erkinliklarimizni kafolatlaydigan muhim bu hujjatga “ijtimoiy davlat” tushunchasining kiritilishi har bir fuqaro uchun g‘amxo‘rlik ko‘rsatadigan mamlakat bo‘lishidan dalolat. Odamlar uchun munosib yashash sharoiti yaratib beriladi. Barcha muammolarga jamiyat muammosi sifatida yondashiladi.

Davomi 2-betda

## AXBOROT XURUJLARIGA TASLIM BO‘LMAYMIZ!

Ayni paytda dunyoga nazar solsak, uning qalqib turgani e’tiborimizni, albatta, tortadi. Dunyo miqiyosida mustaqil davlatlarni ajratib yuborish, ularning yaxlitligiga rahna solish kabi salbiy harakatlar yovuz kuchlar tomonidan faol olib borilayotganiga guvoh bo‘lamiz. Bunga misol keltirish shart emas. Bunday davlatlarda mudom notinchlik hukmron – oziq-ovqat yetishmasligi, ekologiya va atrof muhit muammolari, ochlik, suvsizlik va turli kasalliklar. Ular har xil balolarni o‘z boshiga o‘zlari sotib olayotgandek, go‘yo.

Davlat mustaqilligiga qarshi ish olib borish, uning konstitutsiyaviy mustahkamligini buzishga harakat qilish eng katta qonunbuzarlik bo‘lib, har doim ana shunday salbiy oqibatlarni keltirib chiqargan.

Qardosh va yelkadosh Qoraqalpoq eli ana shunday manfur kimsalarning nishoniga aylanganiga shubha yo‘q.

O‘zbekistonimiz – ko‘p millatli, bag‘ri keng mamlakat. Bu qadim yurtda 150 ga yaqin turli millat va elatlar azaldan tinch-totuv yashaydilar. Mahallada to‘y qilsak, ma’raka qilsak birga qilamiz, ular bilan quvonchimiz-tashvishimiz, maqsad va maslagimiz bir! Vatandoshlarimizning har biri millati va dinidan qat’iy nazar, huquqiy jihatdan teng va ular o‘z milliy urf-odatlariga, an’analariga, tiliga ega. Bu huquq asosiy Qomusimiz – O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida kafolatlangan.

O‘z-o‘zidan ma’lumki, ko‘p millatli davlatda, millatlararo totuvlik, uning taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Biz qoraqalpoqlarni qardoshimiz, jondoshimiz deb bilamiz. Ular biz bilan teng huquqli vatandoshdir. Tojiklar, qozoqlar, qirg‘izlar, ruslar va boshqa millat vakillari bizga qancha yaqin bo‘lsa, qoraqalpoqlar ham shunday.

Ular millat sifatida xalqaro siyosiy va huquqiy asoslarda suverenitetga ega.

Qoraqalpoq tili o‘zbek tili bilan bir qatorda, milliy va davlat tili hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston o‘zining oliy vakillik organi – Jo‘qorg‘i Kengesiga ega.

Ta’kidlash joiz, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar Universitetining Nukus filiali mavjud. Filialda 1000 nafarga yaqin talabalar tahsil olishmoqda. 2020-yilda “Yashil makon” Davlat dasturi doirasida Universitet professor-o‘qituvchilari va talaba-yoshlaridan iborat katta guruh Orolbo‘yiga va filialga safar qilgan edik. Bir haftalik safar davomida ko‘p yumushlarni amalga oshirdik. Orolbo‘yida saksovulzor bunyod etishda ishtirok etdik, respublikaning yuqori organi – Jo‘qorg‘i Kengesida muzokaralar olib bordik. Mo‘ynoqning eng chekka hududi – ovuldagi maktab o‘quvchilari bilan uchrashib, ularga kitoblar va boshqa sovg‘a-salomlar ulashdik. Filialimiz professor-o‘qituvchilari va talaba-yoshlari bilan muloqot qildik. Safarimiz taassurotlarga boy bo‘ldi. Qoraqalpoqlar ham huddi o‘zimizdek juda samimiy, mehmondo‘st va ochiq yuzli kishilar, ularning mehri hamisha bizni tortib turadi. Qardoshlarimizning mehrigiyosi 15 soatlik yo‘l azoblarini ham yuvib yubordi. Qoraqalpoq yoshlarining shijoati, salohiyati va sohani-mutaxassislikni egallash yo‘lidagi intilishlarini juda qadrlayman!

Hunuk voqealar sodir bo‘lmasdan oldin qardoshlarimiz bilan yaqinginada, Yoshlar forumida ham yuz ko‘rishdik. Ular bilan har doim muloqotdamiz. Universitetimizda ayni kunda 174 nafar



qoraqalpog‘istonlik talabalar tahsil olishmoqda. Va shuni ishonch bilan aytmoqchimanki, bu millatdan yomonlik chiqmaydi. Xalq orasiga kirib olgan ayrim ayirmachilar, manfur kuchlar xalq nomidan gapirib, xalq nomini yomonotliq qilishni maqsad qilgan edilar, xolos.

Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan turli yolg‘on va feykdan iborat xabarlarga, chaqiriqlarga aldanib qolmasligimiz, hozirgi vaziyat uchun juda muhim. Biz ziyolilar hayotning past-u balandini ko‘rgan, oq va qorani tanigan, hayotiy tajribalarga ega kishilar sifatida yoshlarni va atrofimizdagilarni bu axborot xurujlaridan ogohlantirishimiz talab etiladi. Har qanday axborotga ham ishonib bo‘lmaydi. Biz tahlil qilishimiz va Prezidentimiz atrofida birlashib, Axborot xurujlariga munosib javob berishimiz lozim. Yurtboshimiz Nukus shahrida bo‘lib, mahallama-mahalla, ovulma-ovul yurib, qoraqalpoq xalqi va faollari bilan uchrashdi. Vaziyatni to‘g‘ri tushuntirib, eng to‘g‘ri qarorni qabul qildi. Murakkab vaziyatda lider o‘z so‘zini aytdi.

Zero, O‘zbekiston hududi bo‘linmasligi, yaxlitligi har bir millatdoshimizning, vatandoshimizning hayot va mamot masalasidir.

Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish davrning qat’iy talabi edi, desak mubolag‘a emas. Tabiiy globalizatsiya jarayonlari, aholining zamonga mos talab va ehtiyojlarining ortib borishi konstitutsion islohotlarni talab etadi. Davlat xavfsizligini saqlash, hududiy birlik, yaxlitlikni ta’minlash uchun, xalqimiz ozodligi, mustaqilligini mustahkamlash uchun Asosiy Qonunni tahrirlash kechiktirib bo‘lmas zaruratga aylanganini to‘g‘ri qabul qilamiz va bu jarayonlarda faol ishtirok etamiz.

Tinchligimiz, barqarorligimizni ko‘ra olmaydigan yovuz kuchlar hamisha topiladi.

Birdam bo‘laylik!

**Xudaynazar YUNUSOV,**
**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,**
**chorvachilik va biotexnologiyalar**
**Universiteti rektori, professor.**

## YANGI O‘ZBEKISTONNI, ALBATTA, YOSHLAR BILAN BIRGA QURAMIZ!



*“Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi birinchi navbatda, farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”.*

**Shavkat Mirziyoyev**

Bugun O‘zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Har qanday davlatning jadal rivojlanishi, muvaffaqiyatlarga erishishi, xalqning tinch, osmonining musaffo bo‘lishi, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tiborning darajasiga bog‘liq demakdir. Shu o‘rinda aytish kerakki, har qanday jamiyatning poydevori, hech shubhasiz, ana shu yurtning yoshlaridir. Ayni vaqtda O‘zbekiston aholisining 60 foizdan ortig‘ini bugungi kun shijoatli yoshlari tashkil etadi. Yurtimiz yuksak taraqqiyot sari ildam odimlar ekan, bu jabhada yoshlarning o‘rni beqiyos. Negaki yoshlar aholining eng tez o‘sib borayotgan, eng katta qismini tashkil qilayotgan qatlamidir. Shuning uchun ham bugungi kun insoniyat duch kelayotgan ko‘plab masalalar, tinchlik va xavfsizlikka tahdidlar, turli xil jinoiy oqimlar, shuningdek, COVID-19 pandemiyasi kabi bir qator mavjud muammolarni hal etish jarayonlariga yoshlarni jalb qilish kerakligini ko‘rsatmoqda.

Har qanday jamiyatga ham intellektual va ma’naviy yetuk, qolaversa, tashabbuskor yoshlar birdek zarur. Shu bois yurtimizda yaratilayotgan deyarli barcha qator qonunlar va muhtaram Prezidentimizning farmon va qarorlari yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga hamda uyg‘un rivojlantirishga qaratilgan.

Xususan, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan 2021-yilga "Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash" yili deb nom berilganligi va xalqimizning, ayniqsa, ertamiz egalari bo‘lgan yigit-qizlarning huquq va erkinliklarini ta’minlash bo‘yicha amalga oshiriladigan, ortga qaytmaydigan islohotlarning izchil davom ettirilishi bayon etilayotgani alohida e’tiborga molikdir. So‘nggi besh yilda qilingan ishlar, shubhasiz, Vatanimizning ravnaqi, xalqimizning farovonligi yo‘lida amalga oshirilgan, tun-u kun tinimsiz qilingan mehnat va bor kuch va imkoniyatlarning safarbarligi natijasidir.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar egasi, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida imzolagan dastlabki qonunlaridan biri ham mana shu kun yoshlariga bag‘ishlangan 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida" gi qonuni edi.

Davomi 2-betda

## CHO‘LPON – MILLATPARVAR SHOIR, MOHIR TARJIMON



Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng adabiyot va san’atning boshqa sohalarida bo‘lganidek, adabiyotshunoslik sohasida ham yangi davr boshlandi. Uzoq yillar davomida o‘rganilishi taqiqlangan madaniy merosimizning qatag‘on davri bilan bog‘liq sahifalari qaytadan tiklandi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon singari yozuvchilarimizning asarlari xalqimizga qaytarilib, ularning hayoti va ijodi jiddiy ravishda o‘rganildi va o‘rganilishda davom etmoqda.

Turkistonda milliy uyg‘onish va yoki jadidchilik harakatining o‘rganila boshlaganiga qariyb yigirma yil bo‘lishiga qaramay, jadidchilik namoyondalari va ularning ijodi bo‘yicha talaygina ishlar amalga oshirildi. Bu harakat namoyondalarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish nafaqat O‘zbekiston, Markaziy Osiyo, balki Germaniya, AQSH, Fransiya, Yaponiya, Turkiya kabi mamlakatlardagi olimlarning ham faol shug‘ullanayotganligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

Milliy uyg‘onish davrining eng buyuk namoyondalaridan biri bo‘lgan Cho‘lponning shaxsiyati va hayoti haqida ko‘pgina qarashlar va talqinlar mavjud. Bu haqida taniqli adabiyotshunos Dilmurod Quronov asosli dalillar bilan ilmiy izlanishlar olib borgan. Dilmurod Quronovning Cho‘lpon haqidagi izlanishlari tahsinga sazovordir.

Natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston Milliy universitetida 1993-yili “Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida xarakterlar psixologizmi” mavzusida nomzodlik va 1998-yili “Cho‘lpon poetikasi (nasriy asarlari asosida)” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Bundan tashqari “Cho‘lpon nasri poetikasi”, “Istiqlol dardi. Cho‘lponning ijtimoiy-siyosiy qarashlari tadriji” nomli kitoblari adabiyotshunoslik fanida fundamental manba sifatida o‘rin qoldirdi.

Olim Cho‘lpon asarlarini nashrga tayyorlab, chop etish ishlarida ham faol qatnashgan. Jumladan, 1994-yilda Cho‘lpon 3 jildlik asarlari to‘plamining 2-jildini nashrga tayyorlagan, uni izohlar bilan ta’minlagan. Shu yili “Adabiyot nadir?” to‘plamini nashrga tayyorlashda qatnashgan. 1997-yilda Andijon viloyati Cho‘lpon jamg‘armasi tashkil qilinganidan buyon jamg‘armaning bosh mutaxassisi vazifasida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. 2016-yilda 4 jildlik Cho‘lpon asarlari to‘plamini nashrga tayyorlash va chop ettirish bo‘yicha guruhga rahbarlik qilgan hamda ushbu jildlikning 2-jildini nashrga tayyorlab, izohlar bilan ta’minlagan.

Akademik Naim Karimov Cho‘lpon haqida shunday yozgan edi: “Cho‘lponning ulug‘vorligi shundaki, u XX asr o‘zbek adabiyotini yangi pog‘onaga ko‘tarib, o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va ravnaq topishiga ulkan hissa qo‘shibgina qolmasdan, xalqda “Vatan”, “Millat”, “Istiqlol” tushunchalarining teran ma’no kasb etishiga ham mislsiz darajada katta ta’sir ko‘rsatdi.

Davomi 2-betda

## O‘ZBEKISTON YOSHLARI – KELAJAK POYDEVORI

Insoniyat tarixida eng ko‘p yoshlar qatlami bilan yashayotgan bir davrda yurtimizda yoshlarga qaratilayotgan e’tibor butun dunyo vakillari tomonidan e’tirof etilmoqda. Ajdodlari buyuk olim, mashhur sarkarda, mohir tabib va donishmandlar bo‘lgan yurt farzandlari har sohada peshqadam, dunyoqarashi keng, ilm-u salohiyatli, jismonan va ma’nan sog‘lom bo‘lib yetishmog‘i lozim.



Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar tahsinga loyiq. Ayniqsa yoshlarga yaratilayotgan sharoitlar, imkoniyatlar ko’zni quvontiradi.

Yurtboshimiz yoshlarni har jabhada qo‘llab quvvatlayotgani yoshlarning kuchiga kuch, g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shib, yanada shiddat bilan ijod qilishlariga, izlanishlariga sabab bo‘lmoqda. Yurtimizning olis chekka qishloqlariga ham zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalari, turli xildagi kitoblar, zamon talablariga mos sport zallari va ashyolari yetkazilib berilmoqda. Bundan tashqari, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish maqsadida turli ko’rik-tanlovlar, festivallar tashkil etilib, ijodkor va bilimli yoshlar munosib taqdirlanmoqda.

Xalqaro fan olimpiadalari, O‘zbekiston va jahon chempionatlarida ishtirok etib, yurtimiz bayrog‘ini baland ko‘tarayotgan shijoatli yoshlarimizning yutuqlaridan butun xalqimiz qalbi faxr va g‘ururga to‘ladi.

Yosh avlodning iste’dodini vaqtida aniqlash va rivojlantirish uchun bosqichma-bosqich tarzda tashkil etilayotgan fan olimpiadalari, sport musobaqalari, “Zakovat” intellektual o‘yinlari o‘quvchi yoshlar hayotida o‘z o‘rnini topishida muhim poydevor bo‘lmoqda desak, yanglishmagan bo‘lamiz.

Shu o‘rinda yana bir jihatga alohida to‘xtalish lozim. Vatanimiz ertalari–egalari bo‘lmish yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash, madaniy meroslarimizni asrab avaylashga o‘rgatish borasida ham yetarlicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Prezident maktablari, Temurbeklar maktabi, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda yoshlarga berilayotgan zamonaviy ta’lim-tarbiya Yangi Renessansning mustahkam poydevori bo'lmoqda. Oliy ta'lim sohasidagi islohotlar va imkoniyatlar esa yigit-qizlarning malakali mutaxassis bo‘lib hayotga kirib kelishida muhim omil bo‘lmoqda.

Davlatimiz rahbarining yoshlar kamolotiga qaratayotgan doimiy e’tibori, ayniqsa, ta’lim islohotlarida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Xorijiy ta’lim muassasalaridan o‘zimizdagi oliy o‘quv yurtlariga o‘qishini ko‘chirish, test jarayonlari, bir vaqtning o‘zida 5 ta OTMda bilimini sinab ko‘rish masalalari buning yorqin misolidir. Albatta, bu kunlarni asrlar davomida xalqimiz orzu qilgan.

Davomi 2-betda

# KONSTITUTSIYA – KOMILLIGIMIZ KAFOLATI

Boshlanishi 1-betda

Lo‘nda qilib aytganda, yoshlar ham, ayollar va keksalar ham e’tibordan chetda qolmaydi. Yashash – har bir insonning tabiiy huquqi. Shu ma’noda yurtimizda o‘lim jazosi taqiqlanganligini Konstitutsiya darajasida belgilash g‘oyatda muhimdir. Garchi o‘lim jazosi ancha yillar ilgari bekor qilingan bo‘lsada, bu qoida Asosiy qonunimizda aks etsa, uni endi hech qachon qo‘llanmasligi kafolatlanadi. Bu insonparvarlik xalqimiz uchun eng katta qadriyatlardan biri ekanligining dalolati bo‘ladi. Umuman, qanchalik og‘ir jinoyat sodir etgan bo‘lsa ham, hech kim o‘lim jazosiga duchor etilishi mumkin emas. Yaratgan bergan in’omni faqat uning O‘zi qaytarib olishi mumkin. Mamlakatimizda o‘lim jazosi bekor qilinganligi va qo‘llanmasligini endi Konstitutsiya darajasida belgilash biz insonparvarlik nuqtayi nazaridan eng to‘g‘ri yo‘lda ekanligimizning amaldagi isboti bo‘ladi.

Qachongacha, otasining qilmishi uchun nega farzandlari yoki aka uchun uka javob berishi lozim? Yoki nima sababdan bir jinoyat uchun butun avlod javob berishi kerak?

Bunday adolatsiz “tizim”dan endi butunlay voz kechamiz.

Chunki xalqimizga sobiq tuzum davrida, ayniqsa, o‘tgan asrning 30-yillaridagi siyosiy qatag‘onlarning o‘zi yetarli emasmi?! Shu vajdan, Konstitutsiyamizga “Shaxsning sudlanganligi va undan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklashga asos bo‘lishi mumkin emas”, deb qat’iy yozib qo‘yishimiz lozim. “Ozodlikdan mahrum etilgan barcha shaxslarga nisbatan insoniy munosabat va ularning qadr-qimmati ta’minlanishi shart”, degan norma ham asosiy qonunimizda o‘z aksini topishi kerak.

Bizga eng manzur bo‘lgani, davlatimiz rahbari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuv chog‘ida ta’lim masalasini alohida tilga oldi: “Biz ta’lim, ilm-fan va inson kapitalini rivojlantirishga ustuvor e’tibor berib kelmoqdamiz. Chunki, bugungi shiddatli raqobat zamonida faqat bilimli, ma’rifatli millat va davlat munosib taraqqiyotga erisha oladi. Ulug‘ ajdodlarimizning yangi barkamol avlodini tarbiyalab voyaga yetkazmoqchi ekanmiz, buning uchun bog‘cha, maktab, oliy ta’lim va ilm-fan sohalarini ustuvor taraqqiy ettirishni konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo‘yishimiz shart. Bosh qomusimizda davlat maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’lim tizimini, turli mulk shaklidagi, jumladan, xususiy ta’lim muassasalarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratib berishi bilan bog‘liq normalar ham bo‘lishi lozim. Ustozga bo‘lgan yuksak ehtirom Konstitutsiyamizda o‘z ifodasini topishi zarur. Shuningdek, pedagog xodimlarning kasbiy faoliyatiga aralashish, ularning xizmat majburiyatlarini bajarishiga to‘sqinlik qilishga yo‘l qo‘yilmasligini Konstitutsiya darajasida belgilab qo‘ysak, o‘ylaymanki, adolatdan bo‘ladi".

Muxtasar qilib aytganda, bizning yangi takomillashayotgan Konstitutsiyamiz inson huquqlariga va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga, har bir insonning sha’ni va qadr-qimmatiga, farovonligi hamda manfaatlari to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishga, insonparvar, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatni barpo etish hamda mustahkamlashga, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatimizni anglashga, yosh avlodni chin vatanparvar hamda o‘ta bilimdon etib ulg‘aytirishga, dunyo ahli bilan tenglar ichra teng bo‘lib ozod va farovon yashashga barchamizni ruhlantiradi, ilhomlantiradi, porloq yo‘limizni mangu yoritib turadi.

**Akram BEGMATOV,**
**O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti direktori, professor.**

# YANGI O‘ZBEKISTONNI, ALBATTA, YOSHLAR BILAN BIRGA QURAMIZ!

Boshlanishi 1-betda

Bizga ma’lumki, 2017/2021 yillardagi O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha tasdiqlangan "Harakatlar strategiyasi"da ham aynan mana shu masala alohida keltirilgan. Ularning davomi sifatida bugun mamlakatimizda joriy qilingan ijod, Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablarning faoliyati, oltin, kumush medallarning joriy etilganini, fan olimpiadasi g‘oliblari, “Zulfiya”, “Mard o‘g‘lon”, “Kelajak bunyodkori” kabi davlat mukofotlarining ta’sis qilingani, albatta, yoshlarga bo‘lgan e’tiborning bir ko‘rinishidir. Yana shuni mamnuniyat bilan ta’kidlash joizki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko‘p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surildi hamda xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi. Davlatimiz rahbari bunga asos qilib, bugun dunyo miqiyosida yoshlarning soni ikki milliarddan ortib ketgani, xalqaro terrorizm va ekstremizm kabi turli oqimlar shiddat bilan o‘sib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini muhim omillar sifatida asoslab berdi.

Umuman olganda, yoshlarning ta’lim olishi va kasb-hunar egallashi ularning kelajakda mana shu yurt koriga yaraydigan farzandlar bo‘lib ulg‘ayishi yo‘lida ham zamonaviy, ham innovatsion-texnologik shart-sharoitlarni yaratib berish uchun O‘zbekiston bor kuch va imkoniyatlarini ishga solmoqda. Chunki yosh avlod qanchalik qo‘llab-quvvatlansa, manfaatlarini himoya qilishga e’tibor qancha kuchaytirilsa, o‘ylaymizki, bizdan ma’naviy yetuk, jismonan sog‘lom, vatanparvar va fidoyi insonlar yetishib chiqadi. Shu bois O‘zbekiston jamiyatning faol qatlami sifatida e’tirof etiluvchi yoshlarga "muammo" deb emas, balki xalqimiz ravnaqini ta’minlovchi katta kuch, davlatning xazinasi, boyligi sifatida qaramoqda. Natijada esa bugun yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, ulkan salohiyatga ega yoshlar mamlakatning ertangi kuni, qolaversa, millat taraqqiyotida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib boryapti.

Bugungi kun "Yangi O‘zbekiston" hamda "O‘zbekiston rivojlanishning yangi bosqichida" kabi nomlar tarixga bitiladi. Ko‘rinib turibdiki, ushbu davr millatimizni tubdan o‘zgartirgan, yangicha ko‘rinishda dunyoga tanitgan davrdir. Bugun boshlagan barcha yangicha islohotlarning davom etishini va yanada yuksalishini barchamiz chin dildan xohlaymiz. Zero, bu o‘zgarishlar kimlar uchundir yoqish yoki maqtanish uchun, yuqori reytinglarda turish uchun emas, avvalo, kelajak bunyodkorlari, yoshlarimizning bugungi va ertangi kuni istiqboli uchun amalga oshirilmoqda. Bu esa yangi O‘zbekiston ma'rifatli jamiyatini yaratishda yoshlarning, siz-u bizning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligimizni ko‘rsatadi. Yurtboshimiz ta’kidlaganidek "Yangi O‘zbekistonni, albatta, yoshlar bilan birga quramiz!"

**Suhrob ERKINOV,**
**Samarqand davlat chet tillar instituti**
**Ingliz filologiyasi va tajrimashunoslik fakluteti dekani.**

# CHO‘LPON – MILLATPARVAR SHOIR, MOHIR TARJIMON

Boshlanishi 1-betda

Adabiyotimizda Cho‘lpon singari millat masalasini, milliy g‘urur, milliy ozodlik tuyg‘ularini hech ham to‘xtamasdan, hech tanaffuslarsiz ko‘tarib chiqqan ijodkor yo‘q. Cho‘lpon butun hayotini millatga tikkan va shu yo‘lda yashab o‘tgan ijodkor edi. Cho‘lpon ham boshqa jadidchilar kabi ijodida ma’rifatchilikni kuylagan holda boshlagan edi. Uning “Qurboni jaholat”, “Do‘xtur Muhammadyor” asarlarida ham aynan ziyoli, o‘qimishli kishilarning jaholat qurboni bo‘lganliklari aks etgan. Cho‘lpon o‘zining ma’rifatparvar g‘oyalarida jaholatning qanchalik daxshatli og‘riq, tuzalmas kasallik ekanligini ko‘rsatib o‘tgan.

Adabiyotning millat hayotidagi o‘rni va roli haqida o‘n yetti yoshida maqola yoza olganligi ijodning, adabiyotning millat uchun naqadar kerakligini erta his etganidan dalolat beradi. Bu xususiyati kelgusi yosh avlod uchun o‘rnak bo‘lsa arziydigan ishdir.

Shoir ijodi keng bo‘lsa-da, hayotlik chog‘ida uchtagina kitobi bosilib chiqqanligi hammamizga ma’lum, “Uyg‘onish” (1922), “Buloqlar” (1923), “Tong sirlari” (1926). Ko‘rinib turibdiki, vafotiga qadar o‘n ikki yil vaqt bor edi. Ammo biror kitobi bosilib chiqmadi. Iste’dod qancha yorqin bo‘lsa, e’tibor birinchilardan bo‘lib qaratilganidek, ma’rifatparvarlarni yo‘q qilish yuzasidan olib borilgan ishlarda ham Cho‘lpon birinchilardan bo‘ldi. 1926-yildan boshlab kommunistlar oyoqqa turib olgandan so‘ng Turkiston millatining “gullari”ni qirish ishlari olib borildi, Cho‘lpon ijodi qoralanib, “millatchi shoir” degan nom bilan hujum boshlandi. Shundan so‘ng shoir ko‘zga ko‘rinmaslik, ijoddan to‘xtab qolmaslik uchun tarjima bilan shug‘ullandi. Shekspirning “Hamlet”ini, Pushkinning “Boris Godunov”, “Dubrovskiy” asarlarini, Gogolning “Tergovchi”, Gorkiyning “Ona” romanini mohirlik bilan tarjima qila oldi.

Shoir lirikasiga to‘xtalganimizda, yuqorida aytib o‘tganimizdek, ma’rifatparvarlik g‘oyalari ochiq-oydin aks etib turganini sezamiz. Xalqni, millatni qoloqlikdan olib chiqish, “malla”larga bo‘yin egmaslik tuyg‘ulari yo‘g‘rilgan birgina “Ko‘ngil” she’rini olsak:

Tiriksan, o‘lmagansan,
Sen-da odam, sen-da insonsen,
Kishan kiyma,
Bo‘yin egma,
Ki, sen ham hur tug‘ilg‘ansan!

Bunday jasoratli hayqiriq, bunday millatni yuksaltirishga, ko‘nglini uyg‘otishga, chetdan kelgan har kimga ham bo‘yin egavermaslikka, “Sen ham odamsan, “malla”lardan hech kaming yo‘q” deya fikrni singdirishda Cho‘lpondek boshqa ijodkor bo‘lmagan. Insonning yuragidagi ajib hislarni uyg‘ota olgan va uni da’vat eta olgan chaqiriqlari bilan ajralib turgan.

**Asem ABDURAHMANOVA,**
**Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi.**

# O‘ZBEKISTON YOSHLARI – KELAJAK POYDEVORI

Boshlanishi 1-betda

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusni targ‘ib qilish va ro‘yobga chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur g‘oyani amalga oshirish maqsadida tegishli loyihalar, jumladan, “Sport karvoni”, “Bir million dasturchi”, “Eng yaxshi kitobxon oila” kabi loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda.

BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning: “Men yoshlar vakillariga muzokaralar davrasida ishtirok etishlari uchun yonimizdan joy ajratishni har biringizdan qat’iy so‘rayman. Toki ular hamma uchun keng qamrovli, adolatli va barqaror rivojlanishga tayanadigan hayot barpo etish yo‘lidagi sa’y-harakatlarimizda imkon qadar bizga yelkadosh bo‘lsinlar” deya ta’kidlashi ham butun dunyo yoshlariga qaratilayotgan e’tibordan bir nishonadir.

Aholisining yarmidan ko’pini yoshlar tashkil qiladigan yurtimizda ertangi kun egalarining hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, kasbga yo‘naltirish va bandligini ta’minlash, tashabbuslarini rag‘batlantirishga qaratilayotgan e’tibor bugungi kunda dunyo davlatlari uchun namuna darajasiga ko‘tarilayotgani sir emas. Intellektual salohiyatli, o‘z qat’iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldor, vatanparvar yigit-qizlar mamlakat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi.

Yoshlar muammolari va murojaatlari bilan ishlashning yangicha mexanizmi joriy etilib, “yoshlardaftari.uz” elektron platformasi yoki “1093” qisqa raqami orqali onlayn ariza qoldirish va murojaat holati to‘g‘risida ma’lumot olish imkoniyati yaratildi. Bu sa’y-harakatlar natijasida ko‘plab yigit-qizlarning muammosi ijobiy hal etilib, tashkiliy, moddiy jihatdan ko‘mak berilmoqda.

Yoshlarni rag‘batlantirish, intilishlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan loyihalar soni va sifati yil sayin ortib bormoqda.

Bugungi kunda yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko’tarilar ekan, bu borada quyidagilarga alohida to’xtalishimiz lozim:

– yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalasiga ko‘proq e’tibor qaratish:

– bugungi kunda yoshlarning ma’naviyati hamda dunyoqarashiga bevosita ijtimoiy tarmoqlar va media vositalari katta ta’sir ko‘rsatmoqda, shu bois ham ularga internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini, kelayotgan axborotlarni tahlil qila olish qobiliyatini shakllantirish va axborot xurujlaridan himoya qilish maqsadida mediasavodxonlik kurslarini tashkil etish va ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir;

– afsuski, aksariyat yoshlar o‘zlarining kelajagini oldindan ko‘ra olish, tahlil qilish va maqsad qo‘yishda qiynalmoqdalar. Shu bois, yoshlarimizni o‘z oldiga maqsad qo‘ya olishni, maktab davridan kasbga tayyorlash, kasbga bo‘lgan qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash, yo‘naltirish va kerakli ko‘nikmalarga o‘rgatishimiz lozim. Chunki, o‘z oldiga aniq maqsad qo‘ya olgan inson, o‘z ustida tinimsiz ishlashda davom etadi.

Mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va yoshlar o‘rtasidagi munosabatlarni sifat jihatidan yaxshilash borasida ko‘plab ishlar amalga oshirilganini alohida ta’kidlash joiz. Yoshlar mamlakatimizning barcha muhim tarmoqlariga jalb etilib, vazirlik va idoralarda ishlamoqda.

Qisqa qilib aytganda, O’zbekiston – yoshlar mamlakati. Yurtboshimiz tomonidan berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, kelajakda har tomonlama yetuk shaxs va jamiyatga foydasi tegadigan mutaxassis bo’lib yetishish biz yoshlarning oldimizdagi eng oliy maqsadimizdir. Zero yurt kelajagi, vatan ravnaqi uchun barchamiz birdek mas’ulmiz.

**Shahribonu ABDUVOHIDOVA,**
**SamDCHTI talabasi.**

# YURT TARAQQIYOTI YO‘LIDA MAS‘ULIYATLI BO‘LAYLIK

Bugungi kunda jamiyatimiz kelajagining asosi hisoblangan yoshlar, bizning eng katta kuchimizdir. Muhtaram Yurtboshimiz yoshlar uchun barcha sharoitlar yaratish borasida qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu biz uchun o‘qish, bilim egallab, o‘z kasbimizning yetuk mutaxassisi bo‘lish uchun katta imkoniyat desak, mubolag‘a emas. “Har bir shaxs erkin kasb tanlash, mehnat qilish, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tarzda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga ega”.

Asosiy vazifamiz yoshlarning o‘z salohiyatlarini namoyon qilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, tajovuzkorlik g‘oyalaridan ularni qutqarish va shu borada tushuntirish ishlarini olib borish, ularni qo‘llab-quvvatlash va har tomonlama yordam ko‘rsatishdir. Aholining keng qatlamini tashkil etgan yoshlarni sport bilan shug‘ullanishga jalb etish, sog‘lom avlodni tarbiyalash, sport industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirish borasida shahar va tumanlarda, chekka qishloqlarda ham jismoniy tarbiya va sport qo‘mitasi tashkil qilindi.

Yoshlarning sport turini tanlashda erkinlik, barcha sport turlariga ixtisoslashgan sport inshootlarini barpo etish kabilar ham asosiy omillardan. Mohiyatan, zamonaviy andozadagi voleybol, basketbol, mini futbol maydonlari, sport majmualari sportga oshno yoshlarning azaliy orzusi edi. “Sog‘lom tanda sog‘lom aql’’ deganlaridek, sport har kunlik ta’lim jarayonida eslab qolish qobiliyatiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

2020/2025 yillarda kitobxonlik ma’daniyatini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish, yoshlarga badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni a’lo darajadagi sifat bilan nashr etish, ijodkorlar faoliyatiga ko‘maklashish, yoshlarda mutolaa ma’daniyatini oshirish, respublikamizning barcha hududlarida zamonaviy talablarga javob beradigan kutubxonalar tashkil qilish asosiy maqsad sifatida kiritildi.

“Go‘zallik ilm-u ma’rifatda’’ deganlaridek kitob inson ong-u taffakkuriga jo bo‘lib, uni ulug‘vor maqsadlar, bunyodkorlik ishlari sari yetaklaydi. Kitob inson miyasida paydo bo‘ladigan har xil g‘araz maqsadli fikrlardan va yomon yo‘llarga kirishdan himoya qiladi. Bitta kitob o‘qigan bola o‘nta televizor ko‘rgan bolani yengoladi” – deya alohida ta’kidlaydi muhtaram Prezidentimiz.

Har qanday jonzot hatto nabodot olami, parranda-yu, darranda suv va havosiz yashay olmagani kabi insoniyat ham ma’naviy ehtiyojlarni qondiruvchi omil – kitobsiz yashashi mushkul. Haqiqatdan ham bekor o‘tirgan odamdan har xil buzg‘unchi fikrlar chiqadi yoki bilib bilmagan holda har xil oqimlarga qo‘shilishi hech gap emas. Samarali yechim esa ularning ma’naviyatini boyitishdir. Agar inson ma’naviy boy bo‘lsa, unga har qancha yomon g‘oyalarni aytsangiz ham, undagi ma’naviy fikrlash o‘zgarmaydi.

**Vasila QILICHEVA,**
**SamDCHTI talabasi.**

# TYUTOR KIM?



Vazirlar Mahkamasining "Respublika oliy ta’lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qaroriga muvofiq uzoq vaqtdan beri kutilgan bir qator tizimli yangilik va o‘zgarishlar joriy etildi.

Ahamiyatlisi, ular qatorida 2021-yil 1-noyabrdan boshlab oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilan ishlash bo‘yicha "guruh murabbiyi" instituti bekor qilinib, uning o‘rniga talabalar bilan ishlaydigan "tyutorlar" amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Kundalik ta’lim leksikonimizga "tyutor" tushunchasi kirib kelar ekan, uning mazmuni nimadan iborat, degan haqli savol tug‘iladi. Avvalambor, "tyutor" ("tutor") tom ma’noda ustoz, murabbiy, instructor – yo‘l ko‘rsatuvchi ma’nolarida qo‘llaniladi.

Tyutor birinchi navbatda, ma’lum bir sohaning mutaxassisi bo‘lib, uning asosiy vazifasi talabaga muayyan bilim va ko‘nikmalar berishdan iborat. Shu ma’noda menga biriktirilgan talabalarga o‘quv jarayoni davomida o‘z salohiyatini namoyon qilish, o‘zini yanada yaxshiroq anglash, o‘qish va hayotda to‘g‘ri qaror qabul qilish va tanlashni o‘rgatyapman. Talabalarimga har bir qadam va harakatlarining oqibatlarini anglash, hayotda o‘z qiziqishlarini topishga yordam bermoqdaman. Buning uchun o‘zim yoshlarning qiziqish va moyilliklarini, muammo va qiyinchiliklarini chuqur tahlil qilmoqdaman. Talabaning atrofidagi intellektual va psixologik muhitni sinchkovlik bilan o‘rganaman. Turli xil ma’naviy tadbirlar va teatrlarga olib boraman.

Hozirda asosiy faoliyatimni talabalarning ilmiy salohiyatini oshirishga qarataman. Zero, ilmning qaysi sohalariga urg‘u berish, kelajakda kasb tanlash, lozim bo‘lsa, boshqa mutaxassislikka mo‘ljal olish, o‘qish va kundalik hayot o‘rtasida muvozanatni o‘rnatish, vaqtini menejment qilish masalalarida talabalarga ta’sir qilish ham tyutorlarning asosiy vazifasidir.

Yaxshi tyutor – bu talabaga yelkadosh murabbiy va mohir konsultantdir. U talabaning kuchli taraflarini, zaxiradagi qobiliyatlarini yuzaga chiqarib, kamchiliklari ustida ishlashni o‘rgatadi. Shunga asosan, bir necha marotaba ular bilan davra-suhbatlarini tashkil etdim. Muzeylar va ziyoratgohlarga sayohat uyushtirdim. Bu borada fakultet dekani o‘rinbosari O‘tkir Burhonov barchamizga yaqindan ko‘maklashmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, tyutor talaba va ta’lim jarayoni o‘rtasidagi bog‘lovchi kuchdir.

**Zulfiya BOTIROVA, tyutor.**

# YO‘QOTILGAN BOLALIK



Bugun yana bir tong otdi. Bu tong otishini kutayotganlar qancha, bu tongni ko‘ra olmaganlar qancha. Zilola o‘rnidan ohistalik bilan turdi va yuzlarini yuvdi. Yana qaytarilgan hayot, o‘sha intizorlik bilan kutayotgan aziz bolalar. Bugun eng yaxshi kunlardan biri ekanligini hamma bilmasa ham Zilola, albatta, biladi.

U bugun o‘n ikki yoshga to‘ldi, ammo u hozir Mehribonlik uyida. U juda ham istaydi ota-onasi bilan tug‘ilgan kunini birga nishonlashni, hamma bolalardek maktabga borishni, onasining mehri issiq bag‘riga bosh qo‘yib yotishni. “Zilola qizim, kela qol, ovqat tayyor, bugun sayrga chiqamiz, ovqatingni ye, bolalar allaqachon yeb bo‘lishdi” dedi Nafisa opa. Zilola shu zahoti ovqatni yeya boshladi. U juda ham xursand edi.

Soat o‘nlardan o‘tdi. Hamma o‘yin kulgu bilan ovvora, Zilola esa xayolchan o‘rindiqda o‘tiribdi. Yo‘lakda ketayotgan bir munis ona, qarang-ki, Zilolaning onasi edi. Zilola onasini ko‘rdi va tanidi. “Oyijon” deb baqirdi. Onasi qizini ko‘rdi-yu, lekin ko‘rmaslikka oldi. “Oyijon, meni tanimadingizmi?” Men Zilolaman. Bugun mening tug‘ilgan kunim, esladingizmi? Ona ko‘rdi-yu, ammo oldidan indamay o‘tib ketdi.

Afsuski, onasi Mehribonlik uyiga Zilolani tashlab ketganiga bor yo‘g‘i bir oy bo‘lgan edi. Onasi boshqa tarafga ketib qolguncha tikilib turdi. Bu uning dunyodagi eng yomon tug‘ilgan kuni edi. Onasi bilan ushrashgani tushlariga kirar, hatto onasini hamon kutib yashar edi.

Zilola ko‘p kitob o‘qir, ba'zan she'rlar yozib turar edi. Men kelajakda jurnalist bo‘laman, albatta, ota-onam, televizorda yoki radioda meni ko‘rib, eshitganlarida eslashar deb o‘ylar edi. O‘qishga kirish maqsadida hujjatlarini oliygohga topshirdi va kecha natijalar e'lon qilindi. Zilola hozir talaba bo‘ldi. U juda xursand edi.

Oradan yillar o‘tdi, Zilola ertaga yigirma yoshga kiradi. Ona mehrini yana qumsayapti, ammo onasi yo‘q. Bugun mening tug‘ilgan kunim. Esladingizmi, ona?

Qarang, dunyo tor. Onasi yo‘lakda dag‘-dag‘ titrab o‘tirar, oldidan hamma odamlar turtib o‘tardi. Bugun Zilola uchun eng yaxshi kunlardan biri. U onasini ko‘rdi. Xayriyatki, onasi Zilolani esladi va bag‘riga bosdi. Hech qachon qo‘yib yubormayman, onajon – dedi u. Sizning mehringizni qancha yillar kutdim, boshqa hech qachon ketib qolmang deya yig‘ladi.

Bolam, kechir, men gunohkor onangni kechir, deb yig‘ladi Xadicha opa. Bu voqealarni Zilola kechirdi-yu, ammo yo‘qotilgan bolalikni hamon qumsab yashadi.

**Ma'mura GELDIYOROVA,**
**SamDCHTI talabasi.**

# ANDIJON FARZANDI QALBLARDA MANGU



Bahor oylarida shahardan qishloqqa qatnaydigan haydovchi odatdagidek shahardan qaytayotgan edi. Oldi o‘rindiqda o‘tirgan yoshi kattaroq odam u bilan suhbatlasha boshladi.

— Bolam, qara, qulog‘imga yangi apparat qo‘ydirdim. Avvalgisi eskirib qolgan edi. Bu ancha yaxshi ishlar ekan, – dedi qulog‘idagini ko‘rsatib.

— Buva, qulog‘ingizga nima qilgan o‘zi? – qiziqib so‘radi haydovchi.

— Afg‘onistonda bo‘lganman.

— Tushunarli. Afg‘oniston g‘irt yomon joy bo‘lsa kerak?

— Borib ko‘rsang bilasan.

Haydovchi kuldi.

— Buva, Hudo saqlasin.

— Afg‘onistonda qarindoshing bor. Bilasanmi?

Haydovchi jiddiylashdi.

— Yo‘gey, sizniki bo‘lsa kerak-da.

— O‘sha qarindoshlaringni bobosi seni bobong bo‘ladi. Otini Bobur deyishadi. Avval Andijonda podsho bo‘ldi, Samarqandda podsho bo‘ldi, keyin afg‘onda podsho bo‘ldi, keyin Hindistonda ham podsho bo‘ldi.

— Ha, buva, yomon hazilkash ekansiz, – deb kuldi haydovchi.

— Bu hazilmas, – dedi yoshi katta yo‘lovchi.

**Jo‘rabek GULMURODOV,**
**Qashqadaryo viloyati**
**Nishon tumani 11-umumiy**
**o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchisi.**

# NAVOIY (NOVEL)

## ILK BOR O‘ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA

*ILHOMJON TO‘XTASINOV, SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI REKTORI, PROFESSOR*

***(Davomi. Boshlanishi oldingi sonlarda)***

"My God, if only this beast in the shape of the human did not get the power!" – he thought and put the letter in a special folder.

He began to wonder how he would satisfy these complaints and calmed down only after he mentally resolved all these issues.

Having performed the evening prayer, Navoiy went to work. Suddenly there was a noise in the yard. A moment later, Darveshali came into the room through the pavement. Brothers joyfully greeted. Darveshali said that the Balkh authorities on orders from Herat unexpectedly released him.

– If only it all ended well, – he continued. – I do not know whether it’s his sincere kindness or flowers laid poison. Navoiy raised his eyebrows as if to say: "I do not know." Darveshali was interested in the details of events about which he heard something in Balkh.

Navoiy told him that the triumph of Majididdin ended. His voice was full of anger, the irony, the wise regret about human weaknesses. Darveshali was happy.

– Exposing the abominations that Majididdin had done, without a doubt was a big deal, – said Navoiy. – But the roots have not yet taken out. Proteges of Majididdin built their nests in all public places. However, they are now strongly reviled the former vizier, but their insatiable womb still continues to absorb the fruits of the work of the people. A new vizier uses them as a weapon to rob people.

– Nizomumulk? – opened his eyes in surprise Darveshali.

Navoiy laughed:

– You are very naive! Try everything only slightly. There are villains, hiding behind the cloak of angels and sheikhs sell their lies to the people saying that they are talling the truth, there are ignoramuses with an armful of books under their arms who call themselves scientists. At the head of our state there is no noble people with a clear conscience, they think only about the benefits from the people. That is why the life will never flourish.

– Has the sultan ignored your views about the need for innovation?

– In our country, – said angrily Navoiy, – those who talk about innovation are considered as rebels and the reward for them is gallows.

Darveshali said nothing. At this time Valibek came in. He said that he had just heard about the arrival of Darveshali and hurried to see him. Navoiy, as always, warmly greeted Valibek and struck up a conversation.

Valibek told them that the case concerning Badiuzzamon who planned to raise in Astrabad and began negotiations with Kandahar’s governor Zulnun Argun has come down to him.

Navoiy excitedly listened to Valibek. Unable to resist, he slapped his knee and said, trembling with excitement:

– All this is close to the truth! Not only Badiuzzamon, but all other princes pose black intentions. Even such a bold, straightforward as Zulnun Argunbek, becomes a rebel! And why not? Argunbek did not do anything wrong in Kandahar. He took a good care of the nukers, their number is constantly growing. But in Herat there are people who envy him. A handful of people who can only destroy and destroy, all the time before the sovereign revile him. Here Argunbek is looking for a defender. Badiuzzamon decided to take advantage of this opportunity.

– Have you already heard about this case? - asked in surprise Valibek.

– No, – said Navoiy.

– You are so corectly outlined his reasons.

– From your words only conclusion can be done, – said Navoiy and continued: however, at the present we cannot afford such troubles. There is no greater crime than needlessly to shed blood and tear the country apart. Covered with ashes of hypocritical friendship and affection, hostility can ignite fires. Poisoned daggers, hidden in his sleeve, can suddenly sparkle with hatred and anger. Oh, if we could hope




that some prince could make something good instead which is useful for the country. But none!

– That's right, – said thoughtfully Valibek. – Members of the royal house live together, like a cat and a dog. There is feud in the army. We are lords fighting against each other.

– The descendants of Timur hitherto have not been cured of this disease. If only it wA tablecloth was set, but no one wanted to eat, just tasted dishes slightly. When Valibek with Darveshali said goodbye and left, Navoiy immediately took pen and paper and began to write a letter to

Baddiuzaman. Some phrases sounded harsh. They were like a tick, glaring at the prince’s heart. Rereading the letter, Navoiy pondered them; however, he did not change a single word. His heart was lighter, as if the smoke cleared his enveloping soul. The poet went to bed.

The next day, after breakfast, Navoiy sent to Astrabad a reliable messenger with the letter, telling him to personally hand it to Badiuzzamon. Then he went to bed. Scribes fixed feathers and chatted among themselves. When Navoiy entered the room they suddenly fell into silence. Among them an old men who had served in the reign of Shahrukh Mirza and boys with just sprouting mustaches came across. Going through the space for scribes, Navoiy walked into the room atthe backside of the building. There was no one except Nizomumulk. The first vizier in an embroidered robe was seated on satin pillows. Rising, he politely greeted the poet and showed him the place beside him.

– I’m ready to have your person in any service, – he said, smiling hypocritically.

Navoiy pulled out a stack of papers and put them in front of Nizomumulk.

– These issues need to be resolved as soon as possible – he said. Nizomumulk unfolded and read the papers one after another.

– Mr. Emir does not have to spend precious time on such matters,

– he said, pushing his thick eyebrows.

– Why? - asked Navoiy.

– When you listen to people, you are – drowned in the bang.

They can simply say: do not bother me and find consent among themselves – smiling said Nizomumulk and continued: – And why did they turn to your high personage? There are government offices and officials to parse these cases.

– People do not expect officials to facilitate their ailments, – said

Navoiy. – These people pierce their throat with daggers and violence.

– People look at officials with unkind eyes – said Nizomumulk.

–They always have done so.

– The people are not guilty – said the poet. – No one treats a person like a snake well.

– Those who are being blamed now, actually, are the faithful friends of the government! – exclaimed Nizomumulk, beginning to feel irritated. – Anyway, it is not good to forget their dignity and merit.

– In our country – said excitedly Navoiy – we have prison sentences and chain gallows. For whom? In fair states, such measures are applied only against the oppressors. We have loyal service provided by the “faithful friends” which harms the country.

The first vizier trembled. He stared at Navoiy and so read on his face enormous strength, inflexible will, rage, ready to break and crush all around. Nizomumulk rose hastily. He called one of his subordinates and handed him the complaints and petitions and said:

– Go immediately to qozi? and examine with him the contents of these papers.

Officer was leaving the room when Navoiy gestured to stop him.

– When will you let us know the results of the complaints? The official, somewhat confused, replied with a bow:

– Your high personage? Once the verification and investigation will be finished, I, the same day, will tell you personally about this.

Navoiy went outside. The sun was hidden by the clouds. Slowly passing on the road lined with square brick tiles, the poet went to the main palace. After waiting for a short time, Navoiy received permission to see the Sultan Husayn Boyqaro, because lately he rarely met with “approximate Sultan”, or as a result of those in a good mood, he kindly received Alisher. For a while they talked about insignificant matters. Basic passions remain the mark not only on appearance but also on the spiritual features of the Sultan. It was not consistent. For no apparent reason, he began to praise someone who seemed to meet him before, he did kiss. And then suddenly as he unjustly asked for ink when received somebody. But his eyes shone, as before, cunning and guile. Waiting for a suitable moment in conversation, Navoiy took a letter and its iodine from his pocket. Sultan Husayn Boyqaro closely held the letter to bleary-eye and read it silently, then placed it on his knees. His face twitched painfully. He seemed to say: «How do you bring such boring stuff?»

Navoiy boldly looked at the Sultan, as though demanding an answer. Finally, Husayn Boyqaro again took the letter in his hands.

– What kind of punishment or penalty do you find appropriate? -he asked and, without waiting for an answer, he began to complain about his unworthy sons.

Navoiy noted that members of the royal family should serve as amodel for all decency and decorum, and he, unfortunately, sees something quite the opposite.

– It is a matter of conscience of your Majesty, – continued

***(Davomi keyingi sonda)***

# BOLALAR VA CHAQALOQLAR HAMMA JOYGA YARASHAVERADI!

Ishxona – pirxona, der edi rahmatli ustozim. U kishi juda haq bo‘lgan, deb o‘ylayapman. Umrimizning yarmi o‘tadigan va u yerda bo‘layotgan voqea-hodisalar kayfiyatingizga, salomatligingizga va kelgusi rejalaringizga bevosita ta’sir o‘tkazadigan joy – Siz faoliyat ko‘rsatadigan tabarruk maskan!

Oliy ta’lim muassasasi esa, rostdan nurli maskan – bu yerda ko‘p ulug‘ insonlarning “izlari” bor. Olimlar, ziyolilar, fidoyilar qadami yetgan ulug‘ joy. Yana bu yerda savob ish bilan shug‘ullanadilar – yoshlarga ta’lim-tarbiya beriladi, kasb sirlari o‘rgatiladi, kelajak egalari tayyorlanadi!

Ta’til boshlandi, yoshlar dam olishyapti. Universitetimiz sokin bo‘lib qoldi. Ba’zi paytlar komendant amaki zal chirog‘ini o‘chirib qo‘ysa, yana ham jim-jit va qorong‘u bo‘lib qoladi...

Yuqori tashkilotdan o‘ta jiddiy topshiriq berildi. Diqqat-e’tibor bilan bajarilishi kerak. Yana chalg‘ib qolmaslikka intilyapman.

Aksiga olib, tashqaridan tinmay chaqaloq yig‘isi eshitiladi!

Bu bizda kam kuzatiladigan holat, aslida.

Sezyapman, ona yosh va tajribasiz, bolasini hech ham ovuta olmayapti (talaba bo‘lsa kerak, deb o‘yladim!).

Unga yordam bergim keldi...

Nega bola tinmay yig‘layapti? Kasal emasmi? Kimda, qanday ishi bor?

Lekin vaqtimni qizg‘ondim – o‘rnimdan tursam, fikrlarim chalg‘ib ketadi, keyin topshiriqni



ko‘ngildagidek bajara olmayman!

Yosh onaning epsizligidan o‘zimcha achchiqlangandek bo‘laman (go‘yo o‘zimning boshimdan o‘tmagandek! Bir zamonlar qizim va o‘g‘lim bog‘chaga bormagan kunlari ish bilan bo‘lib, hamkasblarimning sevimli ovunchog‘iga aylanar edi – esimga tushdi!)

Yaqinda Universitetning o‘quv bo‘limiga bir nechta hujjatlarga aniqlik kiritish uchun kirgan edim, boshqarma boshlig‘i Rahmatulla Ro‘ziqulovga uchrashishni va u kishidan yana ham aniq ma’lumotlar olishimni aytishdi. Domla ish bilan band ekan va u kishidan tashqari yana 2 nafar xodim ishlayotgan edi, domlaning yonlarida.

Meni ta’sirlantirgan holat, xonada 4 yoki 5 yoshni qarshilagan bola ham rasm chizib o‘tirgan edi. Domlaning qarshisida stolda, tinchgina “o‘z ishi” bilan mashg‘ul edi. Nabirangizmi, degan savolimga, ha, deb javob berdi Ro‘ziqulov – shogirdi va xodimining o‘g‘ilchasi ekan.

Ro‘ziqulov bilan biroz ish ustida suhbatlashdik, ma’lumotlarni oldim va orada bolakayga ham e’tibor berib qo‘yaman. Bolakay yonida ishlayotgan onasidan emas, balki domladan ba’zi narsalarni so‘rar edi – domla esa, unga javob qaytarar edi, erinmay bola so‘ragan bir narsalarni uzatib ham yuborardi orada.

Juda odobli, og‘ir-bosiq bolakay ekan!

Juda zavqli manzara edi. Demak, u kishi yaxshi bobo ham ekan, deb qo‘ydim!

Baribir, fikrlarim chalg‘ib ketdi – chaqaloq yig‘isi ko‘p narsalarni eslatib yubordi!

**BOLALAR VA CHAQALOQLAR HAMMA JOYGA YARASHAVERADI!**

Ular bizga umrning da’vomiyligini eslatadi... Topshiriqni esa, ertaga bajarsam ham bo‘laveradi, hali vaqt bor! Bugun esa kech bo‘ldi – ertaga qiladigan ishlarni rejalashtirib olishga ulgurish kerak!

Ishdan uyga, uydan ishga shoshish ham, aslida katta baxt!

Bir tanishim yaqinda aytib qoldi – qalami o‘tkir, tajribali jurnalistlardan – ishga borgim kelmay qoldi, deydi umidsizlanib – bir haftadan beri faqat jadval tayyorlaymiz, ishlamasdan faqat “otchyot” qilib yotibmiz, yuqoriga! Hisobot tayyorlash uchun avval ishlash kerakmi (gapida jon bor, ayrim tashkilotlarda hali ham shunday – “ishlamasdan” faqat jadval tayyorlab jo‘natishadi, yuqori tashkilotga!)?

Gapida “jon” bor, bizlar “Ijodkorlarmiz”, robot yo texnik xodim emas! “Piar” bilan shug‘ullanamiz! Atrofimizdagilarning kayfiyati esa bizga ta’sir qiladi! “So‘z” qudratini yaxshi anglaymiz! So‘z dunyoni buzishi yo tuzishi mumkin, chin ma’noda. Bunga qardosh Qoraqalpog‘iston voqealari misol bo‘ladi. Bloger (jurnalist emas!)ning qutqulari butun elni, millatni “qalqitdi”!

So‘zni o‘rnida ishlating va u dahshatli qurol!

**BUTUN DUNYODA TINCHLIK BO‘LSIN!**

**Gulchehra BERDIYOROVA, jurnalist.**

# KENNEDI KABI O‘QI, EYNSHTEYNDEK DAM OL: BUYUK INSONLARNING FOYDALI ODATLARI

Daholik — bu har birimizga turli darajada berilgan ne’matdir. Agar bunga o‘tmish va hozirgi zamonning taniqli kishilarining tajribasi va bilimlarini qo‘shsak, haqiqatan ham katta muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

***1-odat: o‘qish***

Barcha buyuk odamlar ko‘p va tez o‘qiganlar. Misol uchun, Bill Geyts haftada kamida bitta kitob o‘qib tugatadi va har yili o‘zining sevimli asarlari ro‘yxatini e'lon qiladi. Uorren Baffet vaqtining 80 foizini kitob o‘qishga bag‘ishlaydi, Mark Sukerberg katta ish yukiga qaramay, har kuni turli bosma nashrlarga vaqt ajratadi. Kitobxonlikning katta muxlislari Stiv Jobs, Jon Kennedi, Teodor Ruzvelt, Napoleon Bonapart, Albert Eynshteyn, Lev Tolstoy bo‘lgan.

Ma’lumki, Onore de Balzak katta tezlikda o‘qigan — 2000 ta so‘zdan iborat roman o‘qishi uchun unga yarim soat vaqt ketgan. U bilan faqat Jon Kennedi tenglasha olgan, uning o‘qish tezligi daqiqasiga 1000 ta so‘zdan oshgan. Amerikalik ixtirochi Tomas Edison o‘qish qobiliyatidan tashqari ajoyib xotiraga ega edi — u kitobni deyarli so‘zma-so‘z yodlay olardi. Amerika prezidenti Franklin Ruzveltning tez o‘qish qobiliyatlari hayratlanarli darajada bo‘lgan.

*Franklin Delano Ruzvelt*



Tez o‘qish qobiliyatini qanday rivojlantirish mumkin:

- “tormoz”dan xalos bo‘ling — matnni gapirib berish, oldingi jumlalarni va paragraflarni qayta o‘qish odati;
- biz periferik ko‘rishni rivojlantiramiz — bu matnning katta qismlarini ko‘zlaringiz bilan qamrab olish imkonini beradi;
- yuzaki o‘qishni o‘zlashtiramiz — qisqa vaqt ichida jumlaning ma'nosini tushunishga yordam beradigan kalit so‘zlarni qidirish.

***2-odat: erta turish***

Eng mashhur odamlarning kuni juda erta boshlanadi — ertalab soat 4-5 da. Masalan, Benjamin Franklin ertalab soat 5:00 da, Apple bosh direktori Tim Kuk soat 4:00 da, Bill Geyts 5:00-6:00 da uyg‘ongan. Charlz Darvin 3.30 da turgan, 4.00 da esa allaqachon ishda bo‘lgan. Vinsent van Gog tahminan bir xil jadvalga amal qilgan — ular soat 7.00 da asar yaratishni boshlaydi va 18.00 atrofida ishini tugatadi.

*Tim Kuk*



Erta turish buyuk odamlarga ertalabning eng samarali soatlarini mashaqqatli mehnatga bag‘ishlash, shuningdek, kunning davomiyligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Erta tongda odamni uyg‘otishga yordam beradigan ba’zi maslahatlar:

- ertalab uchun maqsadlar qo‘ying — nima uchun soat 5 da uyg‘onishni xohlayotganingizni, nima qilishni, bu vaqtni qanday boshqarishni aniq bilishingiz kerak;
- “to‘g‘ri” uxlashni tashkil qiling — og‘ir ovqat va jismoniy faoliyatdan saqlaning, gadjetlardan voz keching, o‘qing, bir vaqtning o‘zida yotishga harakat qiling;
- o‘zingizning uyg‘onish odatini yarating – meditatsiya qiling, kuningizni rejalashtiring, sevimli taomingizni tayyorlang va hokazo.

***3-odat: to‘liq dam oling***

Ishning unumdorligi bevosita uning kuchini tiklash qobiliyatiga bog‘liq. Buni sayr qilish (Betxoven, Darvin, Freyd va Dikkens qilganidek), o‘qish (Ruzvelt yoki Napoleon Bonapart kabi) yoki ijodiy sevimli mashg‘ulot (masalan, Eynshteyn musiqa asboblarini chalib dam olish) orqali amalga oshirilishi mumkin.

Tanaffus uchun ajoyib yechim qisqa uyqu hisoblanadi. Kennedi, Rokfeller, Dali, Eynshteyn va Margaret Tetcher kun davomida qisqa uxlashni yaxshi ko‘rar edi.

*Albert Eynshteyn*



Kun davomida dam olish sizga yordam beradi:

– nafas olish mashqlari;

– meditatsiya;

– faoliyat turini o‘zgartirish (qattiq aqliy mehnatdan so‘ng, jismoniy mehnat qilishingiz mumkin va aksincha);

– massaj, dush, basseyn;

– tabiat tovushlari va tasvirlari.

***4-odat: kam uxlash***

Odam uchun o‘rtacha uyquning normal davomiyligi 7-8 soat. Biroq ko‘plab buyuklar sezilarli darajada kam uxlashadi. Masalan, Napoleon va Franklinga 4 soat yetardi, Motsart va Margaret Tetcherga - 5 soat, Ilon Maskka - 6 soat, Nikola Tesla esa ba’zan atigi 2 soatgina uxlardi.

Ko‘p fazali uyqu deb ataladigan narsa daholar orasida ham keng tarqalgan. Masalan, Leonardo da Vinchi har 4 soatda 15 daqiqa uxlardi. Bu variant hamma uchun emas, lekin ko‘pchilik mashhur odamlar qisqa uyqu ish unumdorligini oshiradi degan fikrga qo‘shiladilar.

*Margaret Tetcher*



Qanday qilib kamroq uxlashni o‘rganish kerak:

- uyquni samaraliroq qiling: qorong‘ida uxlang, dam olishdan 2 soat oldin gadjetlardan voz keching;
- tetiklantiruvchi ichimliklarni kamroq iching (qahva, choy, energetik ichimliklar), tushdan keyin og‘ir ovqatlardan saqlaning.

***5-odat: konsentratsiya***

Bajarilishi kerak bo‘lgan vazifalarga diqqatni jamlashning turli usullari mavjud. Misol uchun, Leonardo da Vinchi, Motsart va boshqa ko‘plab buyuk iste’dodlar kundalik yuritgan. Ularning fikriga ko‘ra, bu tinchlanishga, stressdan xalos bo‘lishga va fikrlashni tartibga solishga yordam beradi.

*Volfgang Amadey Motsart*



Konsentratsiyani qanday o‘rganish kerak:

- ko‘p vazifalarni bajarishdan voz keching - bir vaqtning o‘zida bir nechta muammolarni hal qilish ularning hech biriga to‘liq e'tibor qaratishga imkon bermaydi;
- muhim va kichik narsalarni ajratib oling va diqqatni birinchisiga qarating;
- ertalab ko‘proq stressni talab qiladigan vazifalarni bajaring;
- ishlayotganingizda, ko‘rish sohangizdagi barcha chalg‘itadigan narsalarni (gadjetlar, kitoblar va boshqalar) olib tashlang.

***Internet materiali***

# INGLIZ TILIDAN O´ZINGIZNI SINASH UCHUN TESTLAR

1. Choose the correct answer.
No one …… to enter the building until the police have checked the victim's identification.
A) will allow
B) will be allowing
C) has been allowed
D) is going to be allowed

2. Choose the correct answer.
Wild animals instinctively know how to avoid poisonous plants, … may cause them harm.
A) what B) which
C) why D) whose

3. Choose the correct answer.
- As a teenager, Dean did a lot of stupid things that he now feels shame about.
- …… .
A) I didn't either B) Neither do I
C) So do his parents D) So I do

4. Choose the correct answer.
The boy … by the dog was given an injection against rabies.
A) biting B) was bitten
C) bitten D) having bitten

5. Choose the correct answer.
Don't perish the thought of adding every one of these words to your vocabulary, ……?
A) do you B) aren't they C) will you
D) does it

6. Choose the correct answer.
Photosynthesis is the process by which a green plant manufactures …… own food.
A) its B) itself
C) it D) their

7. Choose the correct answer.
The Civil War was the first American war when anesthesia was … used in surgery on soldiers.
A) wide B) width
C) widen D) widely

8. Choose the correct answer.
The department ordered … new furniture to redecorate its offices.
A) many B) a large number of
C) a large amount of
D) several

9. Choose the correct answer.
A: Are the Pitts sending their son to the same school this year?
B: ... I've heard that they are inquiring about one close to their work place.
A) So they are. B) They aren't, either.
C) It doesn't seem so. D) Do you think so?

10. Choose the correct answer.
In many parts of the world, overgrazing by domesticated sheep and cattle, coupled with single-crop agriculture, ... the soil bare and turned huge areas into deserts.
A) have left B) are leaving
C) were leaving D) has left

11. Choose the correct answer.
The bus was going to London bus station, but we asked the driver, and he agreed, to ... us ... at the motorway bridge nearest our house.
A) hand / in B) put / out C) drop / off
D) count / on

12. Choose the correct answer.
Mrs. Jenkins and Mr. Toms run the local social club. The former is responsible for organizing the activities and ... assists her and notifies the members about the activities.
A) the last B) the latter
C)the latest D) later

13. Choose the correct answer.
Our teacher has asked us to give a ... presentation about the effects the rapid expansion of Paris has had upon the city.
A) briefly B) brief C) briefing
D) briefs

14. Choose the correct answer.
Because she does not have much confidence in herself, she hardly does ... without asking for her mother's advice.
A) nothing B) something C) anything D) anywhere

15. Choose the correct answer.
Thank you for letting me know about this birthday wish of ... .
A) him B) me C) your D) his

16. Choose the correct answer.
Julia never knows what she's talking about and therefore often makes a fool of herself, ...?
A)does he B)isn't she C) will she D) doesn't he

17. Choose the correct answer.
It's essential that the documents … be destroyed immediately.
A) ought B) had better C) should D) would

18. Choose the correct answer.
Even if they … me 850,000 yesterday, all the same I … this car now.
A) gave/ wouldn't buy B) give/ didn't buy
C) had given/ wouldn't buy
D) gave/ don't buy

19. Choose the correct answer.
Everybody has to answer for their actions, …?
A) doesn't she B) hasn't he
C) does he D) don't they

20. Choose the correct answer.
They are special people … I first to talk to.
A) what B) whom C) which
D) whose

21. Choose the correct answer.
There … to have been many accidents on the roads this year.
A) reports B) are reported
C) is reported D) to report

22. Choose the correct answer.
"I used to have long hair", Laura said.
Laura said that … long hair.
A) she had used to have B) she used to had
C) I used to have D) she used to have

23. Choose the correct answer.
We chatted about the football for a while and then he went on … me about his divorce.
A) telling B) to tell C) told D) to telling

24. Choose the correct answer.
Of the two teams I think Barcelona is … .
A) stronger B) the strongest
C) by far strong D) the stronger

25. Choose the correct answer.
We need to learn from companies … trading is healthier than our own.
A) whose B) who's C) which
D) that

26. Choose the correct answer.
… in my seventies and rather unfit, I might consider taking up squash.
A) Were I not B) Was I not
C) Weren't I D) If I were

27. Choose the correct answer.
I consider his latest book to be … all his others.
A) the most successful
B) more successful than
C) successful
D) the more successful than

28. Choose the correct answer.
You can take … of these two elective courses; they are … interesting.
A) both/either B) both/all
C) either/both D) one/either

29. Choose the correct answer.
'I wish I had more time.' '…'
A) So did I B) So I did C) I am, too D) So do I

30. Choose the correct answer.
Someone's been in here, …?
A) haven't they
B) isn't he
C) hasn't he
D) hasn't they

***Javoblari keyingi sonda.***

**Zayniddin G'APPOROV.**

***"Intellekt" gazetasining 2022-yil 1-iyuldagi № 12 (44) sonida berilgan testlarning javoblari***

**1-D, 2-A, 3-B, 4-A, 5-B, 6-C, 7-D, 8-C, 9-C, 10-A, 11-D, 12-D, 13-A, 14-A, 15-C, 16-C, 17-A, 18-B, 19-A, 20-D, 21-C, 22-D, 23-D, 24-C, 25-C, 26-A, 27-B, 28-C, 29-A, 30-C.**

# QORAQALPOG'IM!



*Qal'ang maydonida, sho'xlik yarashar!*
*Qorni to'q jigarim, to'qlik yarashar!*
*Nechun dog'da qolding-a?, qadrdon inim!*
*Do'ppilik yoningda – qora, qalpog'im!*

*Ko'rganman Nukusni, qum sovurganda!*
*Ko'z ochirmas shamol, quzg'un uchganda!*
*Nechun dog'da qolding-a?, qadrdon inim!*
*Do'ppilik yoningda – qora, qalpog'im!*

*Azaldan bir-jonu, bir-tan eding-ku!*
*Tarixda ajralmas, osmon eding-ku!*
*Nechun dog'da qolding-a?, qadrdon inim!*
*Do'ppilik yoningda – qora, qalpog'im!*

*Orol suvsiz qoldi, achidi jonim!*
*Go'yo tikan kirdi, sachradi qonim!*
*Nechun dog'da qolding-a?, qadrdon inim!*
*Do'ppilik yoningda – qora, qalpog'im!*

*Cho'l-u sahrolarni, birga kezgandik!*
*Har bir qarich yerni, birga tuzgandik!*
*Nechun dog'da qolding-a?, qadrdon inim!*
*Do'ppilik yoningda – qora, qalpog'im!*

*Mo'noqdan qochgandi, suv va odam ham!*
*Ovloq bo'ldi, tunu, kunduzi kun ham!*
*Nechun dog'da qolding-a?, qadrdon inim!*
*Do'ppilik yoningda – qora, qalpog'im!*

*Endi, ko'r-chi, qara, quvnagay diling!*
*Diyorni madh etib, tolmagay tiling!*
*Nechun dog'da qolding-a?, qadrdon inim!*
*Do'ppilik yoningda – qora, qalpog'im!*

*Hozir yashnamoqda, qishloq shaharlar!*
*Bo'stonga aylandi, qumli sahrolar!*
*Nechun dog'da qolding-a?, qadrdon inim!*
*Do'ppilik yoningda – qora, qalpog'im!*

*Noxos kirgan yov ham, yanchilgay tayin!*
*Tashlab qo'yib, bo'lmas, elni sendayin!*
*Nechun dog'da qolding-a?, qadrdon inim!*
*Do'ppilik yoningda – qora, qalpog'im!*

*Yurtboshimiz bo'ldi, tunlari bedor!*
*Qardosh xalqimga deya, yuqmasin g'ubor!*
*Hech bir yurtda bormu? shunday e'tibor!*
*Do'ppilik yoningda – qora, qalpog'im!*

*Fitna-g'avg'ochiga bizda o'rin yo'q!*
*Elim-elatimsan, ko'ngling bo'lsin to'q!*
*Endi hushyor bo'lgin, otilmagay o'q!*
*Do'ppilik yoningda – qora, qalpog'im!*

**Olimxon MURTAZAYEV,**
**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali direktori, professor.**

# KITOBGA OSHNO QALBIM

## *(HIKOYA)*

Bugun Yoqubovlar oilasida qutlug' kun. To'qqiz yildan buyon duo qilib, umid qilib kutilgan kun. Bugun ular oilasida jajjigina farishta, beg'ubor qizaloq tug'ildi. Qanday ajoyibaaa... Hamma xursand, qizaloqning ota-onasi Sharofat opa-yu, Sodiq akalarning quvonchlarini-ku aytmasa ham bo'ladi. Axir, bugun ular qariyb o'n yillik sabrlarining oltin mevasini qo'llariga ushlab, zavqlanmoqda.

Qizaloqqa umid qilib kutilgani uchun umri uzoq bo'lishini istab, Umriya deb ism qo'ydilar. Qizaloq ulg'aya boshladi. Ulg'aygan sari zehnga va aqlga to'lib bordi. Maktabga ilk qadam qo'yganidanoq o'zining zehni bilan barchani lol qoldira boshladi. Albatta, bularning barchasi yolg'iz farzandining hech kimdan kam bo'lmay o'sishini, o'qib komil inson bo'lishini xohlab tun-u kunni bilmay ishlayotgan Sodiq akaning zahmatli mehnatlari-yu, "o'zim o'qiy olmadim, farzandim men ko'rmagan kunlarga, baxtlarga erishsin" deb tinim bilmayotgan Sharofat opaning intilishlari natijasi, bolani yoshligidanoq kiyimga, oziq-ovqatga emas, kitobga qiziqtirganining natijasi.

Umriya ulg'aydi, ko'p yutuqlarga erishdi. "Ma'rifat kitobxoni", "Kamalak yulduzlari" tanlovlarining respublika bosqichi g'olibasi bo'ldi. Otasi va Umriya Toshkent tomon yo'l oldilar. Tanlovning mutlaq g'olibasi Umriya Yoqubova deb e'lon qilinayotganda, o'sha lahza, o'sha soniyada Sodiq akaning ko'zlari yoshga to'lib, qizining shu kungacha yetib kelishida nimayiki qilgan bo'lsa, bari ko'z oldidan o'ta boshladi. Barchasi uchun ichida shukur qildi.

Tanlov g'olibasining otasidan intervyu olish navbati kelganda, qishloqdan kelgan, soddagina, oddiy kiyingan Sodiq aka erinib-erinib gapirardi.

– Qizingizning shu kungacha yetib kelishida eng katta yordamni siz va ustozlari berishgan deb o'ylaymiz, xo'sh, aytingchi, qizingizdagi kitobga bo'lgan qiziqishni qanday uyg'otgansiz?



– Men, men... oddiy ishchiman, – deb salgina o'zidan uyalgandek hamma jurnalistlarga qarab qo'ydi. – Ba'zida qishloqda turganimiz uchun qizim aytgan barcha kitoblarni ham shahar markaziga borib, xarid qilish menga sal qiyinchilik tug'dirardi, lekin, lekin – sodiq akaning ko'zidan yosh chiqdi-yu hech kimga ko'rsatishni xohlamagandek sekin tepaga qarab qo'ydi, – lekin shu paytgacha yolg'iz qizimning biror istagini rad etmadim. Qo'limda hattoki eng oddiy kitobini olishga pulim bo'lmasa ham, "malikam, xavotirlanma, kitob bugun qo'lingda bo'ladi" deb maqtanib qo'yardim qizimga. Pulim yo'qligini bildirmas edim, sababi meni qiynalganimni bilsa, bundan keyin "menga kitob olib keling, dadajon" deb kitoblar ro'yxati yozilgan kichkina varaqni qo'limga tutqazmas edi. Bu esa men uchun fojia – dedi-yu Sodiq aka o'zi bilan birga butun zalni yig'latdi. – Qizim kitob ro'yxatini qo'limga tutqazib, maktabga chiqib ketardi. Uni kulib kuzatgach o'tirib o'ylardim, "nima qilsam, bugun uning kulgusiga, quvonchiga sababchi bo'laman?" deb o'zimga savol berar edim. Hatto, hatto – ko'zidan yosh chiqib kulib qo'ydi – qish kunlarida peshingacha odamlarning uyida kunbayga ishlaganman. Peshindan keyin qizim maktabdan kelgancha u aytgan kitoblar jajji partasining ustida bo'lar edi. Eh, qizimning shodliklari men uchun qanchalik qadrli ekanini bilsangiz edi!

Lekin mana, qizimning quvonchini ko'rib, oyog'imdan o'tgan zaxlar, yirtiq poyabzallarda kitob do'konlaridagi eng sara kitoblarni olganimda odamlarning menga boshqacha qarashlari, qizim "kitob" deb ro'yxatni berganida kulib turib ichim yig'laganlari, umuman, hamma-hammasi unut bo'ldi. – Qizim ikki karra respublika chempioni, – deb soddagina maqtandi Sodiq aka.

Umriya bugun ushbu satrlarni qirqdan ortiq ijodiy ishlari chiqqan gazetalar orasidan topib oldi, ha, bu o'sha otasining bergan intervyusi. O'qib turib akademik Umriya Yoqubovaning ko'ziga yosh keldi.

**Umida SOBIROVA,**
**Buxoro viloyati Romitan tumani 23-IDUM o'quvchisi.**

# DUNYO XABARLARI

## KECHASI QORIN OCHGANDA NIMA ISTE´MOL QILISH KERAK? NUTRITSIOLOGDAN MASLAHATLAR

Kechasi ovqatlanish ko'p ham foydali emas: organizm va hazm qilish tizimi miyaning uxlab qolishiga yo'l qo'ymaydi. Ammo ochlik ham insonning uyqusiga ta'sir qilishi mumkin. Agar tunning yarmida biror narsa iste'mol qilishga qaror qilgan bo'lsangiz, buni to'g'ri bajarish kerak. "Noviy ochag" nashri nutritsiolog bilan birgalikda tungi gazak uchun nima tanovul qilish kerakligini ma'lum qildi.



***Kurka filesi***

"Kurka go'shtida L-triptofan mavjud bo'lib, u yengillik va uyquchanlik hissini keltirib chiqaradi, oqsil esa organizmni to'yintiradi", — deya tavsiya qiladi Morissa Meshulam.

***Pishloqli kreker***

Pishloq tarkibida melatoninga aylanadigan va uxlashga yordam beradigan oqsil va triptofan mavjud. Krekerlarda to'qlik hissini beruvchi kletchatkalar bor. Shakarning ortiqchasi noxush holatga olib kelmasligi uchun uni haddan oshirmaslik kerak. Shuning uchun bodom unidan tayyorlangan krekerlarni tanovul qilish tavsiya etiladi.

***Sabzavotlar va yong'oqli pyure***

"Odamlar ko'pincha sabzavotni yaxshi ko'rishini unutadi, ular foydaning haqiqiy koni", — deydi Amanda Frankeni. Ikki qoshiq yong'oqli pyure oqsil, kletchatka va to'qlik bilan ta'minlaydi.

***Pista bilan gilos***

Gilosda melatonin mavjud, pista esa oqsil va yog'ga boy. Ajoyib gazak. Ham qorin to'yadi, ham uyqu keladi.

***Yeryong'oq moyi va banan***

"Meva tarkibida mushaklarni bo'shashtirishga yordam beruvchi kaliy va qondagi qand miqdorini tartibga soluvchi murakkab uglevodlar mavjud. Uni sog'lom, to'yingan yog' va uyquni qo'zg'atuvchi triptofan manbai bo'lgan yeryong'oq moyi bilan aralashtirish kerak", — deydi mutaxassis.

***Oqsilli batonlar va boshqa gazaklar***

"Yong'oq, bodom va pista tarkibida tabiiy melatonin, oqsil va magniy mavjud bo'lib, ular to'qlik hissini beradi va uyqu chaqiradi", — deydi Frankeni. Ayniqsa, tunda bu mukammal tanlovdir. Eng muhimi, shokoladli, qahvali va shakar miqdori bo'lganlardan voz kechish kerak.

***Qanday qilib kechasi ochlikdan uyg'onmaslik mumkin?***

Bu balki yetarlicha ovqatlanmaslik tufayli bo'lishi mumkin. Agar tez-tez kechasi och qolgandan uyg'onish kuzatilsa, bu organizmdagi muammolardan ham darak beradi.

## "DUNYONING ENG BOY ODAMLARI RO´YXATINI TARK ETAMAN". BILL GEYTS BUTUN BOYLIGINI XAYRIYAGA BERMOQCHILIGINI MA´LUM QILDI



Microsoft asoschisi Bill Geyts o'zining deyarli barcha boyligini sobiq rafiqasi Melinda bilan hamkorlikda tashkil etgan xayriya fondiga berishini ma'lum qildi.

"Men boyligimning deyarli barchasini fondga berishni rejalashtirganman. Men pastga tushaman va oxir-oqibat dunyoning eng boy odamlari ro'yxatini tark etaman", — deb yozdi Geyts Twitter'da.

"So'nggi bir necha yil ichida" – deb yozadi Microsoft asoschisi "dunyo bir nechta dahshatli zarbalarni boshdan kechirdi, jumladan, koronavirus pandemiyasi va Ukrainadagi urush ko'plab odamlarni umidsizlikka soldi, dunyo bundan ham battar holga tushishi mumkinmi?"

"Ammo men optimistman", — deb tan oldi Geyts, u "zararni yumshatish va dunyo erishayotgan taraqqiyotga qaytish mumkinligiga ishonishini" qo'shimcha qildi.

Geytsning eslashicha, 2000-yilda u rafiqasi bilan xayriya ishlariga yiliga 6 milliard dollar ajratadigan fond tashkil qilgan. "Biroq zamonimizning buyuk inqirozlari barchamizdan yanada ko'prog'ini talab qiladi", — deb yozgan Geyts va endi fond xayriya ishlariga har yili 9 milliard dollar ajratishini qo'shimcha qildi. Buning uchun Microsoft asoschisi fondga 20 milliard dollar taqdim etmoqchi.

"Men o'z resurslarimni jamiyatga azob-uqubatlarni kamaytirish va hayotni yaxshilashga eng katta ta'sir ko'rsatadigan usullar bilan qaytarishga majburman. Va umid qilamanki, juda boy va imtiyozli lavozimdagi boshqa odamlar ham shu daqiqada oldinga qadam tashlaydi", — dedi Geyts.

Fond Bill va Melinda Geytslarning nomi bilan atalsa-da, Microsoft asoschisining ta'kidlashicha, unga mablag'larining yarmi investor Uorren Baffet tomonidan taqdim etilgan. "Men uning do'stligi va yetakchiligini qanchalik qadrlashimni hech qachon yetarli darajada ifoda eta olmayman", — deb yozgan Geyts.

Bloomberg Geytsning boyligini 114 milliard dollarga baholaydi va uni dunyodagi to'rtinchi eng boy odam, deb hisoblaydi. Forbes'ning real vaqt rejimida yangilanadigan dunyodagi eng badavlat biznesmenlari reytingida Geytsning boyligi 13-iyul oqshomida 122,1 milliard dollarga baholangan, ushbu reytingda ham Geyts to'rtinchi o'rinni egallagan.

## 30 YIL DAVOMIDA APPLE´NING DEYARLI BARCHA DIZAYNLARINI ISHLAB CHIQQAN ODAM KOMPANIYANI TARK ETDI

Apple va dizayner Joni Ayv o'rtasidagi shartnomasi ikki tomonlama bekor qilindi. Bu haqda The New York Times xabar bermoqda.

Nufuzli dizayn rahbari Joni Ayv 2019-yilda kompaniyani tark etganida, bosh ijrochi direktor Tim Kuk mijozlarni dunyoga shirin rangli kompyuterlar sovg'a qilgan janob Ayv kompaniya bilan ko'p yillar hamkorlik qilishiga ishontirgan edi.

iPhone ishlab chiqaruvchisi va Joni Ayv o'rtasida tuzilgan shartnoma ikkala tomon roziligiga ko'ra tugatildi.

Dizayner kompaniyada 30 yildan beri faoliyat olib borayotgan edi. So'nggi yillarda u Apple Watch dizayni bilan shug'ullangan.

2019-yilda janob Ayv o'zining Love From dizayn firmasini ochish uchun Apple'ni tark etganida Apple kompaniyasi u bilan qiymati 100 mln dollardan ortiq bo'lgan ko'p yillik shartnoma imzolagan edi.

Aytilishicha, kelishuv Joni Ayvni Apple raqobatbardosh deb topgan ishni bajarishini cheklab qo'ygan.

So'nggi haftalarda shartnoma yangilanishi kutilayotganligi sababli tomonlar uni uzaytirmaslikka kelishib oldi.

Apple kompaniyasining ba'zi rahbarlari kompaniyaning bir necha dizaynerlari janob Ayvning firmasiga qo'shilish uchun ishdan ketganidan keyin hafsalasi pir bo'lgan.

2019-yil iyun oyida Apple'ni tark etishdan oldin janob Ayv kompaniya bilan yaxshi munosabatda bo'lmagan.



Ayv bilan yaqindan hamkorlik qilgan o'ndan ortiq odamning fikricha, Apple'ning ayni vaqtdagi rahbari Tim Kuk tobora dizayndan ko'ra operatsiyalarga ko'proq e'tibor qarata boshlagan.

Joni Ayv 1992-yilda Apple'ga ishga kirgan va dizayn jamoasini boshqarishgacha ko'tarilgan.

1997-yilda Stiv Jobs janob Ayvning jamoasiga iMac dizaynini topshirganida kompaniya bankrotlik yoqasida edi.

Lampochkali, shaffof kompyuter o'sha paytda tarixdagi eng tez sotilgan ish stoliga aylandi. Bu Apple biznesini tikladi va janob Ayvni Stiv Jobsning eng yaqin hamkoriga aylantirdi.

U shunchaki dizayner emas. Ayv mendan tashqari Apple'dagi hammadan ko'ra ko'proq operatsion kuchga ega, — degan edi Stiv Jobs.

2011-yilda Jobs saraton kasalligidan vafot etganidan so'ng, Joni Ayv Apple Watch'ning rivojlanishiga boshchilik qildi.

Ma'lum bo'lishicha, Apple Watch'ni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan konsensusni yaratishdan charchagan dizayner 2015-yildayoq kompaniyadan ketmoqchi bo'lgan.

***Internet materiallari asosida tayyorlandi.***

INTELLEKT

**Muassis:**
**Samarqand davlat chet tillar instituti**

**Bosh muharrir: Ilhomjon To'xtasinov**

Tahrir hay'ati:
Fazliddin Ro'ziqulov (rais), Otabek G'aybullayev, Shaxobiddin Ashurov, Otabek Yusupov, Erali Rahmatov (a'zolar)

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasida 2020-yil 22-iyulda 09-15 raqam bilan ro'yxatga olingan.
Gazeta **«Intellekt»** gazetasi tahririyati kompyuterida sahifalandi. «Sherdor plyus poligraf» bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, 140100, Ulug' Tursunov ko'chas 82-uy.
Qog'oz bichimi: A-2. Adadi: 1 000 Buyurtma: № ______

Bosishga topshirish vaqti: Soat 18:00 da. 2022-yil 16-iyul.
Bosishga topshirildi: soat 19:10 da
Bahosi kelishilgan narxda
t - tijorat material

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
Asilbek Abduraimov

**Nashr indeksi: 5588**

***Maqola va xabarlarda keltirilgan ma'lumotlar uchun muallif javobgar***

***Manzil:*** 140104, Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi 93-uy. Telefon: +998 (97) 575-94-54

***Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar qaytarilmaydi. Muallif nuqtayi nazari bilan tahririyat fikri to'g'ri kelmasligi mumkin.***